



**Shahodat USMONOVA,**  
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti dotsenti, (PhD).  
E-mail sh.usmonova@uzswlu.uz.

Buxoro davlat universiteti dotsenti, filologiya fanlari doktori Mehrinigor Ahmedova taqrizi asosida

### GAZETA MATNIDA ANTISTANDARTLIK HODISASI

Annotatsiya

Gazeta matnlarida antistandartlik hodisasi bu til va uslubning umume'tirof etilgan o'lchovlardan bevosita va bilvosita chetga chiqishi natijasida hosil bo'ladi. Antistandartlik paydo bo'lishining asosiy sabablaridan biri gazeta matnlarida an'anaviy me'yorlarning buzilishiga olib keladigan omillarning mayjudligidir. Bu gazetalar o'rtasidagi halol raqobatda ajralib turish istagi, zamonaviy medialingvistikaning o'ziga xos xususiyatlari, til, adapbiyat, san'at va madaniyatga oid jamiyat hamda inson tasavvuridagi o'zgarishlar bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Ushbu maqolada antistandartlikning zamonaviy gazeta nutqida namoyon bo'lishi, nashr etilgan materiallarni idrok etish va talqin qilishga qanday ta'sir ko'rsatishi tahliliga tortiladi.

**Kalit so'zlar:** ekspressivlik, kontekst, janr, sintaktik konstruksiysilar, kanon, feyk, dezinformatsiya, kognitiv-kommunikativ xususiyat, diskursiv faoliyat, auditoriya, kolumnist.

### THE PHENOMENON OF ANTISTANDARDIZATION IN NEWSPAPER TEXT

Annotation

The phenomenon of anti-standardization of newspaper texts is created as a result of direct and indirect deviations from generally accepted norms of language and style. One of the main reasons for the emergence of anti-standardization is the presence of factors in newspaper texts that lead to the violation of traditional linguistic norms. This may be due to the desire to stand out in fair competition between newspapers, the peculiarities of modern media linguistics, changes in society and human perception of language, literature, art and culture. This article analyzes the manifestation of anti-standardization in modern newspaper discourse, how it influences the perception and interpretation of published materials.

**Key words:** expressiveness, context, genre, syntactic constructions, canon, fake, disinformation, cognitive-communicative feature, discursive activity, audience, columnist.

### ФЕНОМЕН АНТИСТАНДАРТИЗАЦИИ В ГАЗЕТНОМ ТЕКСТЕ

Аннотация

Явление антистандартизации газетных текстов создается в результате прямых и косвенных отклонений от общепринятых норм языка и стиля. Одной из основных причин появления антистандартов является наличие в газетных текстах факторов, приводящих к нарушению традиционных норм. Это может быть связано со стремлением выделиться в честной конкуренции между газетами, особенностями современной медиалингвистики, изменениями в обществе и восприятии человеком языка, литературы, искусства и культуры.

**Ключевые слова:** экспрессивность, контекст, жанр, синтаксические конструкции, канон, фейк, дезинформация, когнитивно-коммуникативный признак, дискурсивная деятельность, аудитория, колумнист.

**Kirish.** Zamonaviy publitsistik matnning uslubiy-semantik xususiyatlarini o'rganish bugungi kun tadqiqotchilarni zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi. Ko'plab olimlar tomonidan e'tirof etilganidek, gazeta matnnining o'quvchilar ommasiga ta'siri boshqa OAV matniga qaraganda kuchli sanaladi. Chunki gazeta matni gazetxonga axborot beradi, atrof-muhitda sodir etilayotgan voqe-a-hodisalar haqida xabar beradi. Albatta, matnni yaratish jarayonida muallif tilning turli tasviriy vositalarini qo'llay olish imkoniyatiga ega bo'ladi va bunda jurnalnistning ishtiroki hamda bilimi muhim o'rinn tutadi.

Antistandartlik – matnning tili, uslubi, tuzilishi, mazmuni yoki umume'tirof etilgan me'yorlari va standartlardan chetga chiqish demakdir. Gazeta materiallarda ushbu hodisa ham leksik-sintaktik, ham uslubiy nuqtayi nazardan o'zini namoyon etish imkoniyatiga ega. Ushbu maqolada gazeta matnlarida antistandartlik hodisasi nima uchun paydo bo'lishi, uning axborotni idrok etishdagi asosiy jihatlari haqida so'z boradi. An'anaviy publitsistika me'yorlari doirasida ingliz va o'zbek gazetalaridagi misollar kontekstdagi ma'noni anglash va idrok etish uchun konseptual tahlil metodi orqali tadqiq qilinadi.

**Mavzuga oid adapbiyotlar tahlili.** Jamiyat hayoti jadal sur'atlarida shiddat bilan o'zgarib borishini ijtimoiy hodisa sifatida e'tirof etiladigan til juda tez payqaydi. Qolaversa, ijtimoiy transformatsiyalar xuddi ko'zgudagidek tilda aks etadi. Publitsistik uslub esa tilning boshqa funksional uslublaridan farqli o'laroq, bu o'zgarishlarni o'zida aks etirishda jonbozlik ko'rsatadi.

Auditorianing axborotni qanday qabul qilishi uni uzatishda qaysi axborot vositalaridan foydalilanayotganligiga ham bog'liq. Har bir axborot vositasi o'ziga xos til va axborotni dolzarblashtirish uslublaridan qo'llangani holda, uning tabiatini shakllantiradi, bu esa, o'z navbatida, borliq haqidagi fikr-mulohazalarga ta'sir etadi.

F. Mo'minovning ta'kidlashicha: "Til biz tahlil etayotgan "kommunikatsiya", "publitsistika", "jurnalistika" kabi tushunchalarning bosh negizi, asosi hisoblanadi. Tilning boshqa muloqot vositalari ustidan g'alabasi uzatilishi lozim bo'lgan ma'lumotlar miqdorining ortib borayotganligi bilan ham shartlangandir" [1].

O'zbek olimi M.Xudoyqulov publitsistika haqida quyidagi fikrlarni bildiradi: "Publitsistika xuddi jurnalistika singari o'z navbatida turli turlarga, xillarga bo'linib ketadi:

ijtimoiy-siyosiy publisistika, ilmiy publisistika, adabiy-badiiy publisistika, hajviy publisistika va boshqalar. Publisistika janr nuqtayi nazaridan esa uchga – axbori, tahliliy va badiiy publisistikaga bo‘linadi” [2].

Ko‘p ma‘nolilik, so‘z yasalishining noyob manbalari, emosional-ekspressiv lug‘at, uslubiy vositalari, mavzularning dolzarbliji, siyosiy, iqtisodiy, ma‘naviy, madaniy xarakterdagi muammolarni muhokama qilishda publisistik uslub muallifiga keng imkoniyatlar yaratib beradi.

Gazeta ekspressivligi – bu aynan standartlashtirilgan birliklarga qarama-qarshi aniq konstruktiv lingvistik xususiyat bo‘lgan baholovchi belgi hisoblanadi. Umuman olganda, ekspressiv sintaktik konstruksiyalar chegaradan va me‘yordan oshadigan “standart” bo‘lgan konstruksiyalardir [3].

“Standartlik-antistandartlik” – “ekspressivlik-antiekspresivlik” muayyan darajada har qanday nutqqa xosligi, biroq aynan gazeta publisistikasida qo‘llaniladigan keng leksik diapazon, til vositalarini tanlash OAV vazifalaridan kelib chiqishi va uslubiy prinsipga bo‘ysunishi aniqlangan [4, 135].

Matnga ta’sir o‘tkazishda stereotiplar ya’ni klishe, shtamplar va aksiologik leksikaning roli muhim. Ommaviy auditoriyada mulohazalar, fikrlash va nutqdag‘i emosionallik o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmaydi, kuchli ta’sir etuvchi maqola matni turli omillar orqali inson ongiga va tafakkuriga ta’sir qilishi mumkin. Shu jihatdan antistandartlik va antiekspresivlik bir-biri bilan chambarchas bog‘langan-ki, ularni bir-biridan ayro tassavur qilib bo‘lmaydi. Agar o‘quvchiga asosiy maqsad faqat ma‘lumotni yetkazish bo‘lsa, bunda antiekspresivlik ustunlik qiladi. Jurnalist muayyan ijtimoiy guruhga ega bo‘lgan muammoga o‘z nuqtayi nazarini, munosabatini antistandartlik orqali ifoda etishi mumkin. Bu uning tanloviga bog‘liq. Ushbu jarayonda antiekspresiv so‘zlar antistandartlikning paydo bo‘lishida muhim o‘rin tutadi. Albatta, bu turdag‘i iboralarga bo‘yoqdar iboralar qo‘silsa, ekspressivlik yuz beradi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Jurnalistning ijodiy identivligini uning shaxsiy lisoniy didi orqali gazeta matnini yaratishdagi mahoratida ko‘rish mumkin. Bunda muallif gazeta matnining ta’sirchanligini oshirish uchun bir paytning o‘zida standartlikdan ekspressivlikka, ekspressivlikdan standartlikka taalluqli so‘z va iboralardan foydalanishi mumkin. Bu kabi ijobjiy effektga erishish yo‘lidagi harakatni antistandartlik va antiekspresivlikning o‘zaro “almashinuv” yoki “aylanish”da ko‘rish mumkin. Bunday hodisa gazeta matniga mos keladigan konstruktiv tamoyil, deya baholanadi [5].

Tadqiqotda ingliz va o‘zbek tillaridagi gazeta maqlolaridagi antistandartlikka oid bo‘lgan jumlalar tahlil etildi. Ularni gazeta matnning lisoniy tuzilishini va kognitiv-kommunikativ xususiyatlarini ta’riflashda ko‘pgina qayd etilgan belgililar orqali ham uslubiy, ham diskursiv xususiyatlar jumlasiga kiritish mumkin. Shuningdek, gazeta matnining ekspressivligini oshirishda uning janr xususiyatlari ham muhim o‘rin tutadi. Axboriy janrga xos bo‘lgan xabar, reportaj, hisobot, intervyu hamda tahliliy janrga tegishli korrespondensiya, sharh, felyeton kabi yirik axborot uzatish manbalaridagi xususiyatlari kontekstual tahlil, taqqoslash, kontent tahlil kabi usullardan foydalanilgan holda tadqiq etildi.

**Tahlil va natijalar.** Gazeta matnlarida antistandartlikning paydo bo‘lishining sabablari ko‘p. Birinchidan, jurnalistlar media bozorida kuchli raqobat sharoitida o‘quvchilar e’tiborini jalg qilishga intiladi, bu esa ularni ko‘pincha til va uslubning doimgi qonunlaridan voz kechishga majbur qiladi. Ikkinchidan, raqamli texnologiyalar va ijtimoiy tarmoqlarning rivojlanishi axborotni iste’mol qilish sur’atlarini tezlashtirdi, bu esa materiallarni taqdim etish shakliga ham ta’sir ko‘rsatadi. So‘zlashuv tili, turli

qisqartmalar, metafora, mubolag‘a, takror singari noyob stilistik trop va figuralardan hamda hayratlananlar sarlavhalardan foydalanish kabi noan’anaviy yondashuvlar e’tiborni jalg qilishi va xabarning tarqalishini tezlashtirishi mumkin.

Gazeta matnida antistandartlik hodisasi quyidagi holatlarda paydo bo‘ladi:

–Lekskik nomuvofiqlik: matnda o‘zlashma so‘zlar, jargon, so‘zlashuv nutqi, tabulardan foydalanish. Maqola yoki sarlavhalarda jargonlar, efemizmlar, stilistik trop va figuralar, so‘zlashuv uslubiga xos bo‘lgan so‘zlarini qo‘llash matnga ham ijobjiy, ham salbiy ma‘no berishi mumkin. Masalan, tibbiyotga oid metaforlarning ishtiroti: Ingliz tilida: “They’re also causing headaches for state and local governments that face multibillion-dollar bills to finance road upkeep and expansions”. O‘zbek tilida: “Vaholonki, qiz bola olyi ma‘lumotli bo‘lsa, qanchalik bilim va salohiyat olsa, buni kelgusida farzandlariga ham “yuqtiradi”, har tomonlama barkamol avlodni voyaga yetkazish masalasiga mas’uliyat bilan yondashadi” va h.k.

Harbiy sohaga oid metaforlarning ishtiroti: The programmes were beset by “military hysteria”, she added” va h.k. O‘zbek tilida: “Axborot maydoni haqiqiy “jang” maydoniga aylanib bo‘ldi. Negaki, ommaviy kommunikatsiya texnologiyalari orqali axborot kanallari o‘tkir va tezkor quroq sifatida tobora kuch olmoqda”; “Aynan ma‘naviy-ruhiy tarbiya kerak paytda qalqon, kerak paytda himoya “quroq” vazifasini o‘tab kelmoqda”. Sarlavhalarda ham shu turdag‘i metaforlarning ishtiroti matnga ekspressiv ma‘no beradi: “Wordle and recipes are the secret sauce of news”, “Siklon bombasi” xatarlimi yoki foydali?” va h.k. Muallif voqeahodisalarni qanchalik yorqin va haqiqiy tasvirlasa, uning ommaga ta’siri shunchalik samarali bo‘ladi.

– Sintaktik nomuvofiqlik: grammatic me‘yorlarni buzish, nostandard konstruksiyalarni qo‘llash. Biron bir asar fragmentidan foydalanish, aralash so‘z va iboralarning ishtiroti, grammatic qoidaga muvofiq kelmaydigan o‘rin almashishlar va ataylab qo‘llanilgan xato jumlalar ham matnni jozibador qiladi. Misol uchun, “Young Chinese are ditching planes to travel long distances by bus and train. Meet the ‘iron butt’ travelers”; “Every time we see rows like this play out, Spotify grows faster. As the apocryphal Hollywood agents say to their clients: “Don’t read your press, weigh it”. O‘zbek tilida: “Daraxt, menga yashashani o‘rgat...”; “Dunyoga ilinj, havas, umid bilan qaragan, qalbi, fikri, insonni, Vatanni anglashi sog‘lom bolalarning, ularning ota-onalarining ko‘ngidan kechayotgan, lekin tiliga ko‘chmayotgan sezimlarni, hissiyotlarni so‘zsiz tushunish, ularga hayotdan rozi bo‘lib yashashlari uchun keng imkoniyatlar yaratib berish, dardmandlarga darmon bo‘lish uchun inson, avvalo, katta qalb egasi, nomi bosh harflar bilan yoziladigan Inson bo‘lishi kerak!” va h.k. Mazkur qarashlar asosida yaratilgan matnni o‘qigan gazetxon ongida maqlolada tasvirlangan voqeahodisani o‘z ko‘zi bilan ko‘rgandek taassurot paydo bo‘ladi.

– Strukturaviy nomuvofiqlik: matndagi uslubiy va pragmatik xususiyatlarni saqlab qolgan holda tasvirlar, izohlar, sarlavhalarni noodatiy tarzda yaratish. Sarlahalarning noodatiy tuzilishi va ekspressiv ma‘no ifodasi, ayniqsa, ingliz tilidagi gazetalarda ko‘p uchraydi: “Trucks Deliver Surge of Goods, Tearing Up Neighborhoods”; ‘Walden’ Review: My Sister! My Twin! My Astronaut!”. O‘zbek tilida: “Dabdaba va dahmaza – bizni kemiruvchi illatlar”; “O‘zingiz o‘tirgan daraxt shoxini arralamang!”; “Bunchalar buyuksan vafo shevasi” va h.k. Ingliz va o‘zbek gazetalaridagi sarlavhalarni yaratishdagi bu kabi yondashuv gazetxonni matnga qiziqritardi va butun maqlolani o‘qishga undaydi.

– Janrlardagi nomuvofiqlik: matnga turli ma‘lumotlarni kiritish orqali shov-shuvli xabarlar, istehzoli maqlolarni tayyorlash. Bunda noan’anaviy sarlavhalar

yangiliklar oqimida ajralib turishning yana bir usuli bo'lib, ular paradoks, istehzo yoki hatto bema'ni so'zlar yordamida vujudga kelishi mumkin. "ECB hawks bide time as 'last dove standing' policy wobbles amid high inflation"; "...all the news that's fit to print"; "Champion of 'unbossed culture' reshapes Swiss drugmaker..."; "The adage that 'there's no such thing as bad publicity' holds true for Spotify, writes Will Page"; "It sits distinctly uneasily with the promises at a triumphalist Conservative party conference just four months ago of a "high-wage, high-productivity"economy" va h.k. Umuman olganda, antistandardlik zamonaqiy gazeta matnlarida ko'p uchraydi. Jarayon haqidagi munozaralarimizni dunyoning yetakchi va mashhur nashrlarida, ayniqsa kolumnist va sharhlovchilarining sahifalarida kuzatishimiz mumkin.

O'zbek tilida chop etiladigan "Jamiyat" ijtimoiy-siyosiy gazetasidan misol keltiramiz: "Insoniylikning "propiskasi" bo'lmaydi, mehr-oqibat joy tanlamaydi. Shu bilan birga nodonlik, jaholat ham... Faqt ojiz, xudbin, kaltafahm insonlarga o'z tug'ilgan joyi, zotu zuryodi bilan faxrlanadi, boshqalarni yerga urib, o'zini osmon chog'laydi. Bunday kimsalar qancha ko'paysa, millat shuncha maydalashadi, boshqalarning qo'lida o'yinchoq bo'ladi". Bu gapda antistandardlik ifodasi muallifning his-tuyg'ularida namoyon bo'ladi. Jurnalistning yondashuvini ta'kidloveli va emosional-ekspressivlikni ifodalovchi antistandard so'zlar orqali bilish mumkin. Xuddi shu gazetadan yana bir misol: "Talabalik paytimizda yotoqxonada "SurQash", "SamBux", "FAN" singari guruhlarga bo'linib, bir-biriga tish qayraydiganlarni ko'p uchratganniz. Afsus bu illatlar hamon yo'qlmayapti. Ijtimoiy tarmoqlarda "quruq", "harip", "indeyes" singari haqoratomuz so'zlar bilan bir-biriga tosh otayotganlar ham aslida bir-biri bilan qirpichoq bo'lishyapti". Misollarda piching, kinoya va istehzo kabi stilistik trop va figurallardan foydalanish natijasida muallifning haddan ortiq his-hayajonga berilganligini kuzatish mumkin.

Masalan, sarlavhalar, maqlolar, ayrim fragmentlar matnni obro'sini oshirishi mumkin, lekin ko'pgina antistandard jumlalarning ishlatilishi tanqidga ham sabab bo'la oladi. Misol uchun, "Hurriyat" gazetasidan olingen parchani tahlilga

tortamiz: "Qush uyasida ko'rganini qiladi", degan gap bor xalqimizda. Yana shu narsa ham aniqki, qush uyasida eshitganini aytadi. Qarg'a bolasining o'z inida eshitib qulog'iga ilgani va tiliga tirkak qilgani "g'aqg'aq"dir, u boshqa, masalan, bulbul inining doimiyo xushohang sasi bo'lmish "chahchah"ni hech bir zamon tilida tiriltira olmaydi. Qarg'aning "chahchah" aylashi uchun u o'z inida ko'z ochgan damdanoq shu sas uning qulog'ida ipakdek eshilmoq'i zarur... Nainki qush, odam bolasi ham shunday...". "G'aqg'aq" va "chahchah" so'zlarini onomotapiya, tiliga tirkak – metafora, tilida tiriltira olmaydi – bo'rttirish, ipakdek eshilmoq'i zarur – o'xshatish kabi stilistik vositalarga misol bo'la oladi. "O'zini donishmand sanaydigan ayrim "tili buzuqlar" o'zbek imloviy lug'atini alohida "qora" sahifalar bilan boyitishga ham ulgurib bo'lishdi. Eng dahshatlisi esa bu toifalarning aksariyatini "donishmandlikka, faylasuflikka" davosi borligidir.". Ushbu misolda ishlatilgan ayrim antistandard so'zlar matnning obro'sini tushirishi mumkin.

**Xulosa va takliflar.** Shunday qilib, gazeta matnlarida antistandardlik ko'p qirrali va qarama-qarshi hodisadir. Bir tomonidan, bu maqlani jonlantirishga yordam beradi, diqqatni tortadi va ma'lumotni kengroq auditoriya uchun yanada qulayroq qildi. Boshqa tomonidan, nostandard ifoda vositalarini qo'llash faktlarning buzib ko'rsatilishiga va o'quvchilarning ishonchini yo'qotishiga sababchi bo'ladi.

Shuni alohida ta'kidlash o'rinniki, antistandardlik matnning jozibadorligini oshirishi barobarida u o'zi bilan bir qator xavflarni ham olib keladi va har doim ham ijobiy qabul qilinmaydi. Bu dalillarning buzilishini, manbalarga nisbatan ishonchning kamayishini, axborot sifatining pasayishini keltirib chiqaradi. Misol uchun, antistandardlik orqali manipulyasiya tahdidi: mubolag'a, norasmiy til yoki feyklardan va dezinformatsiyalardan foydalanish o'quvchini chalg'itishi mumkin. Manbagaga ishonchning pasayishi esa gazetaning lisoniy va uslubiy kanonlarini tez-tez buzilishiga, gazetxonning ma'lumotlarni unchalik jiddiy qabul qilmasligiga olib keladi. Nostandard jumlalar maqlolarning asosiy mazmunidan chalg'itishi, yoki uning shaklini buzishi mumkin.

#### ADABIYOTLAR

1. Мўминов Ф.А. Журналистика ижтимоий институт сифатида. – Т.: Университет, 1998. – Б. 8.
2. Худойкулов М. Журналистика ва публицистика. – Т.: Тафаккур, 2011. – Б. 19.
3. Будниченко Л.А. Экспрессивная пунктуация в публицистическом тексте: автореф. дисс. ... док. филол. наук. – Санкт-Петербург, 2004. – 43 с.
4. Баранов А.Н. Политическая метафорика публицистического текста: возможности лингвистического мониторинга // Язык средств массовой информации. – М.: Изд-во МГУ, 2003. – С. 134-140.
5. Usmonova Sh.A. Antistandard and antiexpressive formula in mediatext: discursive analysis // International Scientific Forum on language, literature, translation, literary criticism: international scientific-practical conference on modern approaches and perspectives. Buxoro davlat universiteti. – В. 231-235. Web: <https://iejrd.com/>.
6. Usmonova Sh.A. The Functional-Stylistic Status of Mediatext // International Journal of Progressive Sciences and Technologies (IJPSAT), 2019. ISSN 32509-0119. 2019. No 2. Volume 16. – Р. 138-140.
7. Usmonova Sh.A. Mediadiskursda ekspressivlik tendensiyasi // «Word Art – So'z san'ati» ilmiy jurnali, 2021. – № 3. – В. 247-254.
8. The New York Times. 27.01.2022.
9. The USA Today. 12.07.2024.
10. The Washington Post. 05.09.2023.